

## MAMLAKATIMIZDA DAROMADLARNI BYUDJETLARARO OQILONA TAQSIMLASH YO'LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8428729>

**Parpibayev Dilmurod Odil o'g'li**

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada mamlakatimizda daromadlarni byudjetlararo oqilona taqsimlash yo'llari, xususan soliqlarni byudjetlararo taqsimlash va byudjet daromadlarini maqsadli tarsfertlar shaklida taqsimlash yollari yoritilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*daromad, byudjetlararo munosabat, soliq, subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiya, byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar, maqsadli ijtimoiy transfertlar*

## BUDGET REGULATION IN THE SYSTEM OF FINANCIAL SUPPORT FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SOCIETY

### **Abstract**

*This article examines the ways of rational inter-budgetary distribution of income in our country, in particular, inter-budgetary distribution of taxes and distribution of budget revenues in the form of targeted transfers.*

### **Keywords**

*income, inter-budgetary relations, taxes, subventions, transfer income, subsidies, inter-budgetary settlements, targeted social transfers*

### **Kirish**

Mamlakatimizda erkin bozor munosabatlarini yuzaga kelishi va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida, raqobatning kuchayib borishi davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirishga bo'lgan yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlat moliyasi tizimini mazmun va sifat jihatdan zamon talablari asosida takomillashtirish zarurati kelib chiqmoqda.

Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimliklarni o'z vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy dastak hisoblanib, ularning moliyaviy mustaqilligi ushbu hududlarni

rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hududlarni rivojlantirish borasida fikr yurita turib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev "hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag'lari yetarli emas" deya ta'kidladilar [1].

Mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va daromad bazasini mustahkamlash, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha manbalarni jalb etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar Davlat byudjeti parametrlarining ijro etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda hududlarning real imkoniyatlaridan kelib chiqib, yechimini kutayotgan mavjud muammolarni va joylardagi ishlarning haqiqiy holatini o'rgangan holda ishlab chiqilgan kelgusi yil mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlarini, byudjet daromadlari va xarajatlari parametrlari, ularni byudjetlararo taqsimlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

#### *Mavzuga oid adabiyotlar tahlili*

Davlat byudjeti daromadlarini byudjetlararo taqsimlash, mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish masalalari xorijlik olimlardan E.A.Morozova, Y.N.Lyubimsev, O.G.Bejaev, X.V.Bogovlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan[2-5].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjet daromadlarini shakllantirish, ularni byudjetlararo taqsimlash usullari, mahalliy byudjetlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.Malikov, N.Xaydarov, Sh.Toshmatov, A.Jo'raev, Q.Usmonov A.Islomqulovlarning ishlarida yoritilgan[6-10].

Shunday bo'lishiga qaramasdan, byudjet daromadlarini byudjetlararo taqsimlash mexanizmi masalasi yuqoridagi iqtisodchi-olimlarning ilmiy izlanishlarida maxsus mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilmagan.

#### *Tahlillar va natijalar*

Davlat byudjeti daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni byudjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) mumkin.

Soliqlar byudjet daromadlarini salmoqli qismini tashkil etar ekan, ularni byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi haqida iqtisodchi olimlarning fikrlarini ko'rib o'tamiz.

Professor Sh.A.Toshmatov, mahalliy byudjetga soliq tushumlarini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib, unda soliqlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimallashtirishdan manfaatdorligini ta'minlash kontekstida

takomillashtirish bo'yicha fikr mulohazalarni berib o'tadi. Shuningdek, hududiy soliq salohiyatni baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi[7].

A.X.Islamqulov respublikamizda davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohalarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda muallif byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi[[8].

Q.A.Usmonov esa, byudjet daromadlarini rejalashtirishning ahamiyati to'g'risidato'xtalib, hozirgi kunda byudjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini yetarli va sifatli darajada shakllantirish hamda bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usuli, muddati hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabulqilish lozimligini ilgari suradi[9].

Byudjet daromadlarini byudjetlararo taqsimlash natijasida byudjetlararo munosabatlar yuzaga keladi.

T.Malikov, O.Olimjonovlarning fikricha "Byudjetlararo munosabatlar - davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida munosabatlardir" [6].

Respublikamizda markaziy darajada byudjetlararo munosabatlar tizimi nisbatan barqarorlashtirilgan bo'lsa-da, mahalliy darajadagi byudjetlararo munosabatlar tizimida echimini kutayotgan muammolar mavjuddir. Ayniqsa nisbatan iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarimizda, manzilli byudjet transfertlariga ehtiyojmandtuman va shaharlarimizning mavjudligi ushbu sohadagi islohotlarni tizimli ravishda kuchaytirishni talab qilmoqda.


Biriktirilgan	• Mahalliy soliqlar va yig'imlar
Tartibga soluvchi	• Respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlar
O'z daromadlari	• Mahalliy byudjetlarga to'liq qoldiriladiga numumdavlat soliqlari
Moliyaviy transfertlar	• Mahalliy byudjetlarni foydalanganlik uchun muvozanatlashtiruvchi transfertlar

### 1-rasm. Mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibi

Amaliyotda mahalliy byudjetlari daromadlari o'z daromadlari, birlashtirilgan daromadlari, tartibga soluvchi daromadlari va moliyaviy transfertlardan tashkil topadi (1-rasm). Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlarini yetishmasligi birlashtirilgan va tartibga soluvchi daromadlardan foydalanishga sabab bo'ladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda bir byudjetdan boshqa byudjetga muayyan maqsadda yoki maqsadni ko'rsatmagan holda mablag'larning o'tkazilishini o'zida ifodalovchi byudjetlararo transfertlar muhim ahamiyatga ega. Demak, byudjetlararo transfertlardan foydalanish byudjetni tartibga solishning asosiy maqsadi bo'lgan mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Xorijiy tajribani o'rganish byudjet amaliyotida umumqabul qilingan ikkita usul faol qo'llanilishini ko'rsatmoqda. Birinchi usul byudjetning har bir darajasiga soliq solinadigan bazalarni birlashtirish yoki barcha daromadlarni safarbar qilish va keyinchalik quyi byudjetlarga taqsimlash tartibida daromad manbalarini byudjet tizimining bo'g'inlariga qarab taqsimlashni o'z ichiga oladi. Ikkinchi usul esa byudjet tizimi byudjetlarining yuzaga keladigan vertikal nomutanosibliigi masalalarini hal qilishga qaratilgan transfertlar shaklida grantlar ajratishni o'z ichiga oladi.

Byudjet tizimi rivojlanishining yangi bosqichi mahalliy byudjetlarning mustaqilligini ta'minlash va moliyaviy nomarkazlashtirish masalalarida mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarining kengayishi bilan izohlanadi. 2017 yildan boshlab daromadlar bazasini mustahkamlash, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash siyosati doirasida mahalliy byudjetlarning nisbiy ko'rsatkichlari mutlaq ko'rsatkichlar oshgani sayin sezilarli darajada pasaya boshladi. 2018-2021 yillarda davlat byudjeti daromadining o'sish sur'atlari mahalliy byudjetlar daromadlarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Bunday holat mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi (2-rasm).



2- rasm. Davlat byudjeti tarkibida mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari ulushining o'zgarishi [10] (foizda)

Tahlil qilingan davrda mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi 2019 yilda 31,3 foizni va 2021 yilda 18,4 foizni tashkil qilmoqda. Bu holat bir tomondan, mahalliy byudjet daromadlarining xarajatlariga mutanosib emasligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, mamlakatda ijtimoiy soha taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat berilayotganligidan darak beradi. O'z navbatida, byudjet qonunchiligiga ko'ra, mahalliy byudjetlar taqchillik bilan moliya yilini yakunlashiga yo'l qo'yilmaydi. Shu munosabat bilan moliyaviy transfertlar orqali mahalliy byudjetlarning taqchilligi qoplanib kelinmoqda.

Soliqlarning byudjet tizimi byudjetlariga birlashtirilishida aholi soni, zichligi va soliq to'lovchilar soni inobatga olinadi. Ushbu mezonlar asosida quyi turuvchi byudjetlar daromadi xarajatlarini qoplash uchun yetmasa, shuningdek, respublikada ijtimoiy ne'matlarning adolatli taqsimlanishiga erishishda byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlash dastaklaridan foydalaniladi. Respublikada iqtisodiy islohotlar natijasida mahalliy byudjetlar: viloyat hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjetlari daromad vakolatlari belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu soliqlarni to'liq va o'z vaqtida tushishi uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratib, ular bo'yicha ortiqcha tushumlar ta'minlashidan manfaatdorligi kuchaytirildi.



Umumdavlat soliqlarining (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniyshaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va b.) bir qismi qonunchilikda belgilangan normativ me'yorlar asosida mahalliy byudjetlarga o'tkaziladi. Umumdavlat soliqlaridan ajratma me'yorlarining o'zgarib turishi mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i, foyda solig'idan tushumlarni ulushli tarzda mahalliy byudjetlarda qoldirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Soliq vakolatlarining hukumatning turli bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishda muhim o'rin egallaydi. Shuni ta'kidlash joizki, daromadlarning davlat hokmiyatining turli bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi xarajat vakolatlarini nomarkazlashtirish tamoyilidan kelib chiqadi hamda mos ravishda, hududiy va mahalliy hukumat organlarining funksiyalarini kengaytirishorqali amalaga oshiriladi.

Bunda hukumatning turli bo'g'inlari o'rtasida solikli daromadlarning ma'lum turlarini to'liq biriktirib qo'yish bilan muammo hal etilmaydi. Aksariyat hollarda, solikli daromadlarni va soliq vaoklatlarini biriktirishning turli sxemalari mavjudligi vauni tatbiq etish muammoning yechimi bo'lishi mumkin.

Soliqlar va to'lovlarni byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi natijasida mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining vakolatlari doirasida mahalliy soliq va yig'implarni tushum darajasini oshirish yo'li bilan daromadlar bazasini oshirishga manfaati kuchaydi va mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini hamda yig'uvchanlik darajasini solishtirish yo'li bilan mahalliy hokimliklarning faoliyatini real baholash imkoniyati paydo bo'ldi. [13]

Umudavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkentshahar byudjetlariga ajratmalar me'yori[10] (foizda)

2018 yilda yagona soliqdan meyoriy ajratma hamma hududlar uchun 100 foiz qilib belgilangan (Toshkent shahridan tashqari). 2018 yilda foyda solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan viloyati va Surxondaryo viloyatlarida 100 foiz hududlarning ixtiyorida qoldirilgan bo'lsa, Andijon (65%), Buxoro (79%), Jizzax (81%), Qashqadaryo (32%), Navoiy (92%), Sirdaryo (90%), Farg'ona (85%) va Xorazm (83%) viloyatlarida 32-92 foizlarni tashkil etgan va 2019-2020 yillarda Toshkent shahar va Toshkent viloyatidan tashqari hamma hududlarda 100 foizni tashkil etgan. Jismoniy shaxslarning daromad solig'idan me'yoriy ajratma 2018-2020 yillarda foizgacha Toshkent shahar va Toshkent viloyatidan tashqari hamma hududlarda 100 foizni tashkil etgan. QQSdan ajratma esa 2020 yilda faqatgina Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 foizni tashkil etgan.

2020 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" Qonunida Byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishning, xususan 2021 yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan<sup>1</sup> va unga ko'ra soliqlarning bir necha turlari tumanlar va shaharlar

Hududlar	Yuridik shaxslarning foyda solig'i			Jismoniy shaxslarning daromad solig'i			Qo'shilgan qiymat solig'i		
	2018 y	2019 y	2020 y	2018 y	2019 y	2020 y	2018 y	2019 y	2020 y
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Andijon viloyati	65	100	100	100	100	100	100	60	-
Buxoro viloyati	79	100	100	100	100	100	5	20	-
Jizzax viloyati	81	100	100	100	100	100	100	61	-
Qashqadaryo viloyati	32	100	100	100	100	100	100	50	-
Navoiy viloyati	92	100	100	100	100	70	31	26	-
Namangan viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	-
Samarqand viloyati	70	100	100	100	100	100	100	36	-
Surxandaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	63	-
Sirdaryo viloyati	90	100	100	100	100	100	73	29	-
Toshkent viloyati	-	-	34	74	77	34	-	20	-
Farg'ona viloyati	85	100	100	100	100	100	21	100	-
Xorazm viloyati	83	100	100	100	100	100	79	31	-
Toshkent shahri	-	-	5	4	10	5	-	-	-

byudjetlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyat byudjetlari va Toshkent shahar byudjetiga to'liq hajmda o'tkazilishi belgilandi (2-jadval).

2-jadval

2021 yilda soliqlarni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlanishi [10]

Byudjet darajalari	Soliq turlari
tumanlar va shaharlar byudjetlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;</li> <li>➤ jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;</li> <li>➤ jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;</li> <li>➤ suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;</li> <li>➤ qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.</li> </ul>
Qoraqalpo g'iston Respublikasi byudjeti, viloyat byudjetlari va Toshkent shahar byudjeti	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;</li> <li>➤ yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;</li> <li>➤ elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;</li> <li>➤ benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksizsolig'i;</li> <li>➤ aylanmadan olinadigan soliq;</li> <li>➤ qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);</li> <li>➤ qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;</li> <li>➤ ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;</li> <li>➤ qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlar va g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladiganutilizatsiya yig'imidan tashqari);</li> <li>➤ avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imlar;</li> <li>➤ qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;</li> <li>➤ davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;</li> <li>➤ mobil aloqa xizmatlari va alkogol mahsuloti, shu jumladan</li> </ul>



pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishincha 2020 yilning 1 iyul holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 134-moddasida byudjetlararo transfertlarning shakllari keltirilgan bo'lib, ular subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi.

3-

jadv

al

Byudjetlararo transfertlarning turlari[11]

Subvensiyalar	O'tkazib beriladigan daromadlar	Dotatsiya	Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar	Transfertlar	
				Maqsadli ijtimoiy transfertlar	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va prognozi	tegishli ma'muriy-hududiy birliklar hududida	yuqori turuvchi byudjetdan quyituruvchi byudjetga	Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida	yuqori turuvchi byudjetdan quyituruvchi byudjetga ta'lim	qaytarilm aslik sharti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi
Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotgan belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.	shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o'tkaziladigan daromadlar qaysi ma'muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo'lsa, o'sha ma'muriy-hududiy birlik byudjetiga	dotatsiya turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz	byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyituruvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlari dir.	va tibbiyot muassasalarining ish haqi va ijtimoiy soliq bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi.	byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash uchun beriladi.

	o'tkazib berilishi mumkin.	qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.			
--	----------------------------	---	--	--	--

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan viloyatlar mahalliy budjetlari daromadlari tarkibida maqsadli ijtimoiy (tartibga soluvchi budjetlararo) transfertlarning ulushini ko'rib chiqamiz.

### 3-jadval

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan viloyatlar mahalliy budjetlari daromadlari tarkibida maqsadli ijtimoiy (tartibga soluvchi budjetlararo) transfertlarning ulushi[10] %da

T/r	Hududlar nomi	Maqsadli ijtimoiy taransfertlar		Tartibga soluvchi lararo transfertlar	
		2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	34,9	0	0	44,6
2.	Andijon viloyati	40,3	41,9	22,0	27,2
3.	Buxoro viloyati	15,9	0	0	18,5
4.	Jizzax viloyati	35,7	39,8	29,9	28,8
5.	Qashqadaryo viloyati	14,1	0	20,5	38,03
6.	Navoiy viloyati	13,9	0	0	0
7.	Namangan viloyati	44,3	42,4	32,7	39,5
8.	Samarqand viloyati	37,7	43,7	10,6	29,3
9.	Surxondaryo viloyati	44,0	42,3	32,5	42,4
10.	Sirdaryo viloyati	33,6	39,5	31,4	41,8
11.	Toshkent viloyati	18,1	0	0	0
12.	Farg'ona viloyati	39,4	0	10,5	23,9
13.	Xorazm viloyati	36,8	41,8	24,6	30,5
14.	Toshkent shahri	0	0	0	0
	Jami	29,3	20,0	14,5	26,0

2019 yilda maqsadli ijtimoiy taransfertlar tuman va shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarining yagona ijtimoiy to'lov va ish haqlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan [12].

Globalashuv sharoitida davlat moliyasini boshqarish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda byudjet tizimi byudjetlari daromad manbalarini ilmiy

asoslangan holda belgilash, soliqlar vositasida byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida soliqlarni taqsimlash, byudjet transfertlarini ajratishda hududlarning byudjet bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Soliqlar tizimini takomillashtirish orqali byudjetlararo mutanosiblikka erishish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqil byudjet-soliq siyosatini yuritishini tashkil etish, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi darajasini oshirish, davlat byudjeti daromadlari va qo'shimcha manbalarini shakllantirishga oid samarali fiskal siyosat yuritish, byudjetlararo munosabatlarda soliqlarni ulushli tartibda taqsimlash kabi yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-byudjet tizimining shaffofligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat byudjetini o'rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qaror qilindi va ushbu qaror bilan 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi qabul qilindi.

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasida davlat byudjeti darajalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Davlat moliyasini boshqarishning yanada oqilona va samarali tizimini ta'minlash maqsadida byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida ulardan har birining xarajatlar bo'yicha majburiyatlarini aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarur bo'lib, byudjetlararo transfertlar miqdorini hisoblash va ajratishning yagona va shaffof uslubiyati joriy etiladi.

### *Xulosa*

Byudjetlararo munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra davlat moliya tizimining o'zagi byudjetni shakllantirish va amalga oshirish jarayonining alohida bosqichini nazarda tutadi. Bu munosabatlarning mazmunini ushbu bosqichning ob'ektiv funksiyasi, ya'ni davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil etish uslubiga adekvat

bo'lgan turli darajadagi davlat byudjetlari ishtirokida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash belgilanadi.

Yuqoridagi holatda umumdavlat soliqlari va boshqa daromadlar, jumladan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq, mahalliy ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'iga aksiz solig'i, davlat bojlari, yig'imlar va jarimalar to'liq hajmda mahalliy byudjetlar daromadlariga o'tkazilishi hisobiga yuz bergan. Mamlakatda byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlash, hududlarning byudjet bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga qaratilgan siyosat yuritilishiga qaramay, mahalliy byudjetlar ixtiyoridagi daromadlar ulushi pastligicha saqlanib qolayotganini ijobiy baholab bo'lmaydi hamda mahalliy byudjetlar uchun yetarli darajada emas.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari barqarorligini oshirish, ular mustaqilligini ta'minlash uchun soliqlardan berilayotgan ajratmalar byudjet qonunchiligiga muvofiq hududlarning viloyat byudjetida qoldirilmoqda. Qayd etish joizki, mahalliy byudjetlar balansligini ta'minlash ular daromadlarining xarajatlariga mutanosib bo'lishini taqozo etadi va xarajatlar tarkibini tahlil qilish, shu asosda ularni optimallashtirish mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104b.

[2] Морозова Е.А. Муниципальная реформа и межбюджетные отношения в российских регионах // Экономические науки. 2008. № 14(39);

[3] Любимцев Ю.Н. Приоритеты совершенствования межбюджетных отношений // Экономист. 2000. № 6. С. 21 – 33.;

[4] Бежаев О. Г. Межбюджетные отношения. Теория и практика реформирования. М.,2001, с. 16; Крохина Ю. А. Бюджетное право и российский федерализм. М., 2002, С.221.;

[5] Богов Х. М. развитие межбюджетных отношений и предпосылок экономического роста// Финансы и кредит, 28 (268) - 2007.;

[6] Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / - T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. - 800 b.

[7] Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo’nalishlari .-T.: TDIU, 2017. -b.27-28.,

[8] Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash masalalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, 2016 y.;

[9] Usmonov Q.A. Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo’nalishlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, 2014 y.;

[10] [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O’zbekiston Respublikasi moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari

[11] O’zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2020 yil 30 dekabrda 660-sonli Qonun tahririda

[12] Sharapova, M. A. (2021). Issues of improving the financing of public education in the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (96), 115-119.

[13] Н.Э. Жиянова, У.А.Ортиков [Солиқ ва солиққа тортиш солиқ тизимининг жахон тажрибаси ва уни Ўзбекистон амалиётида қўллаш имкониятлари](#)- Иқтисодиётда инновация, 2020 1 (3)